IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

ISLOMIY BANKCHILIK TAMOYILLARI, XALQARO TAJRIBALAR VA O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Uzganbayeva Dilnoza
FarDU, Iqtisodiyot kafedrasi o’qituvchisi

Olimova Mexribon Umarjon qizi
FarDU, Iqtisodiyot fakulteti talabasi
mexribonimolimova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20082490

Annotatsiya

Ushbu maqolada islomiy bankchilik tizimining asosiy tamoyillari, uning an’anaviy bankchilikdan farqli jihatlari, qo‘llaniladigan moliyaviy instrumentlar va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Islomiy moliya foiz (ribo), noaniqlik (g‘arar) va qimor (maysir) elementlaridan xoli bo‘lib, real aktivlarga asoslangan va foyda-zararni taqsimlash tamoyiliga tayanadi. Maqolada Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Pokiston va Buyuk Britaniya tajribalari o‘rganilib, Islom darchalari tizimining samaradorlik omillari aniqlangan. Shuningdek, O‘zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirishning huquqiy, institutsional va kadrlar tayyorlashga oid istiqbollari yoritilgan. Ayniqsa, 2026-yil 27-martda qabul qilingan O‘RQ–1126-sonli “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonun tahlil qilinib, unda Markaziy bankning Islomiy moliya kengashi, banklarning Islomiy moliya kengashi, ikki turdagi litsenziya tizimi va islomiy moliya operatsiyalarining huquqiy asoslari yoritilgan. Xulosa qilib aytganda, islomiy bankchilik nafaqat musulmon aholining ehtiyojlarini qondirish, balki moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: islomiy bankchilik, ribo, g‘arar, maysir, mudoraba, mushoraka, murabaha, sukuk, Islom darchalari, O‘zbekiston.

PRINCIPLES OF ISLAMIC BANKING, INTERNATIONAL EXPERIENCES AND DEVELOPMENT PROSPECTS IN UZBEKISTAN

Abstract

This article analyzes the main principles of the Islamic banking system, its differences from traditional banking, used financial instruments and international experiences. Islamic finance is free from the elements of interest (ribo), uncertainty (gharar) and gambling (maysir), and is based on real assets and relies on the principle of profit and loss sharing. The article examines the experiences of Malaysia, the United Arab Emirates, Pakistan, and Great Britain, and identifies the efficiency factors of the Islamic window system. Also, the legal, institutional and personnel training perspectives of the development of Islamic finance in Uzbekistan are highlighted. In particular, the Law on Amendments and Additions to the Law "On Banks and Banking Activities" adopted on March 27, 2026 ORQ-1126 was analyzed, in which the Islamic Finance Council of the Central Bank, the Islamic Finance Council of banks, the two types of license system and the legal basis of Islamic financial operations were highlighted. In conclusion, Islamic banking can serve as an important factor not only in meeting the needs of the Muslim population, but also in increasing financial inclusion and diversifying the economy.

Keywords: Islamic banking, riba, gharar, maysir, mudarabah, musharakah, murabaha, sukuk, Islamic windows, Uzbekistan.

ПРИНЦИПЫ ИСЛАМСКОГО БАНКОВСКОГО БАНКА, МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются основные принципы исламской банковской системы, ее отличия от традиционного банкинга, используемые финансовые инструменты и международный опыт. Исламские финансы свободны от элементов процента (рибо), неопределенности (гарар) и азартных игр (майсир), основаны на реальных активах и опираются на принцип разделения прибылей и убытков. В статье рассматривается опыт Малайзии, Объединенных Арабских Эмиратов, Пакистана и Великобритании, а также выявляются факторы эффективности исламской оконной системы. Также освещены правовые, институциональные и кадровые перспективы развития исламских финансов в Узбекистане. В частности, проанализирован Закон «О внесении изменений и дополнений в Закон «О банках и банковской деятельности», принятый 27 марта 2026 года ORQ-1126, в котором выделены Совет по исламским финансам Центрального банка, Совет по исламским финансам банков, два типа лицензионной системы и правовая основа исламских финансовых операций. В заключение, исламский банкинг может служить важным фактором не только в удовлетворении потребностей мусульманского населения, но также в повышении финансовой доступности и диверсификации экономики.

Ключевые слова: исламский банкинг, риба, гарар, майсир, мудараба, мушарака, мурабаха, сукук, исламские окна, Узбекистан.

So‘nggi yillarda islomiy moliya tizimiga bo‘lgan qiziqish dunyo miqyosida sezilarli darajada oshmoqda. Dinamik rivojlanayotgan ushbu tizim jahon moliya bozorida tobora mustahkam o‘rin egallab, nafaqat musulmon mamlakatlari, balki G‘arb davlatlarida ham faoliyatini kengaytirmoqda. Islomiy moliyaviy institutlar soni ortib, ularning moliyaviy bitimlarni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha salohiyati kengaymoqda. Jahon moliyaviy inqirozlaridan so‘ng islomiy moliyaga nisbatan e’tibor yanada kuchaydi, chunki bu tizim spekulyativ operatsiyalarni cheklab, real iqtisodiyot bilan mustahkam bog‘langan.

O‘zbekistonda ham aholining 90% dan ortig‘i musulmon bo‘lganligi sababli, islomiy moliya xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, kamida uchta bankda islomiy moliya mezonlari va tartiblarini joriy etish vazifasi belgilangan. Bu boradagi eng muhim qadam 2026-yil 27-martda qabul qilingan O‘RQ–1126-sonli qonun bo‘lib, u islomiy bankchilik faoliyatining huquqiy asoslarini yaratdi. Shu bois, ushbu maqolaning maqsadi islomiy bankchilikning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari, xalqaro tajribalar hamda O‘zbekiston uchun istiqbolli yo‘nalishlarni tahlil qilishdan iborat.

Islomiy bankchilikning asosiy tamoyillari

Islomiy bankchilik - bu faoliyatini islom huquqi, ya’ni shariat qoidalari asosida olib boruvchi bank tizimidir. Shariat Qur’on va Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) sunnatidan olingan bo‘lib, moliyaviy muomalalarning halolligi, adolatli va shaffof bo‘lishini talab qiladi. Islomiy bankchilikning markazida quyidagi uchta asosiy taqiq turadi:

Ribo (foiz,sudxo‘rlik). Ribo - qarz sharti sifatida yoki to‘lov muddati uzaytirilgani uchun asosiy qarzga qo‘shimcha ravishda to‘lanadigan har qanday ortiqcha miqdordir. Qur’oni karimda “Alloh savdoni halol, riboni harom qildi” (Baqara surasi, 275-oyat) deb ta’kidlangan. Islomiy banklar Shariat qoiadalariga tayangani sabab ularda foiz asosidagi kreditlar qat’iyan man etiladi.

G‘arar (noaniqlik). G‘arar - bitim predmeti, muddati yoki natijasi noma’lum bo‘lgan, haddan tashqari tavakkalchilikka asoslangan shartnomalarni anglatadi. Payg‘ambar (s.a.v.) “noaniqlik aralashgan savdodan” qaytargan. Shu sababli, islomiy banklarda spekulyativ operatsiyalar qo‘llanilmaydi.

Maysir (qimor). Maysir - tasodif va omadga asoslangan daromad olish faoliyati bo’lib, ular Islom qoidalariga zid hisoblanadi. Jumladan qimor o‘yinlari va chayqovchilikdir. Islomiy moliyada daromad real mehnat, tadbirkorlik yoki aktivlarga asoslangan savdo orqali olinishi shart.

Bundan tashqari, islomiy banklar harom (taqiqlangan) faoliyatlarni — spirtli ichimliklar, cho‘chqa mahsulotlari, qurol-yarog‘, qimor va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va savdosini moliyalashtirmaydi.

Islomiy va an’anaviy bankchilikning qiyosiy tahlili

An’anaviy banklarning asosiy daromad manbai - foiz marjasidir. Ular depozitorlardan past foiz bilan mablag‘ jalb qilib, qarz oluvchilarga yuqori foiz bilan kredit beradi. Bunda bank o‘z daromadini loyiha tavakkalchiligidan qat’i nazar, oldindan belgilangan foiz sifatida oladi. Shuningdek an’anaviy banklarda mijoz va bank o’rtasidagi munosabat qarz beruvchi va qarzdor tamoyiliga asoslanadi. Kechiktirilgan to’lov uchun jarima sifatida foiz ustiga foiz qo’shiladi.

Islomiy banklarda esa foyda va zarar teng taqsimlanadi. Kredit tizimi foizga qarshi hamda islomiy banklarda mijoz va bank o’rtasidagi munosabat sherikchilik yoxud sotuvchi va xaridor munosabati tamoyilig asoslanadi. Bundan tashqari Islomiy banklarda pulga tovar sifatida emas, balki ayirboshlash vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli pulni pulga sotib foiz olish taqiqlangan. Islomiy banklar quyidagi mexanizmlar orqali daromad oladi:

- Foyda va zararni taqsimlash (PLS)
- Savdo asosidagi moliyalashtirish (ustama bilan sotish)
- Ijaraga berish (lizing)

Quyida keltirilgan jadvalda an’anaviy va islom banklari o’rtasidago farqni ko’rish mumkin.

1-jadval.

Xususiyat	An’anaviy Bank	Islomiy bank
Daromad manbai	Foiz	Savdo, ijara, PLS
Risk taqsimoti	Risk asosan qarz oluvchiga o’tkaziladi	Risk depozitor, bank va tadbirkor o’rtasida taqsimlanadi
Pulning qiymati	Vaqt omiliga bog’liq (pulning narxi)	Pul tovar emas, qiymati yo’q
Depozit kafolati	Barcha depozitlar kafolatlangan	Faqat joriy hisobvaraqlar kafolatlangan
Aktivlarga bog‘liqlik	Sof moliyaviy bitimlar mumkin	Barcha bitimlar real aktivga asoslangan
Taqiqlangan faoliyat	Cheklov yo‘q	Shariatga ziyonli loyihalar man etiladi
Kechiktirilgan to‘lov uchun jarima	Foiz ustiga foiz hisoblanadi	Jarima olinmaydi, agar olinsa xayriyaga beriladi

1-jadval. Islomiy va an’anaviy banklarning asosiy farqlari

(Ushbu jadval o’rganilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi)

Islomiy moliyaviy instrumentlar

Islomiy banklar o‘z faoliyatida bir qator shariatga mos moliyaviy shartnomalardan foydalanadi. Ular orasida eng keng tarqalganlari Murabaha, ijara, mudoraba, sukuk, mushoraka.

Murabaha. Bu usulda bank mijoz xarid qilmoqchi bo‘lgan tovarni sotuvchidan sotib oladi va uni mijozga oldindan kelishilgan ustama (marja) bilan sotadi. Mijoz summani bo‘lib-bo‘lib yoki bir martalik to‘laydi. Murabaha islomiy banklarda eng ko‘p qo‘llaniladigan instrument bo‘lib, ayniqsa savdoni moliyalashtirishda samaralidir.

Ijara (islomiy lizing). Bank aktivni (binoni, mashinani, uskunani) sotib oladi va uni mijozga ma’lum muddatga ijaraga beradi. Ijara haqi belgilangan bo‘lib, muddat tugagach aktiv bankka qaytariladi yoki mijozga sotiladi. Ijara muntahiya bittamlik (sotib olish huquqi bilan ijara) varianti ham mavjud.

Mudoraba (ishonchli sheriklik). Bir tomon (rab ul-mol) kapitalni beradi, ikkinchi tomon (mudarib) esa o‘z mehnati, boshqaruvi va tajribasini kiritadi. Foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi. Zarar faqat kapital egasiga tegadi, mudarib esa o‘z mehnatini yo‘qotadi. Mudoraba ko‘proq loyihalarni va kichik biznesni moliyalashtirishda qo‘llaniladi.

Mushoraka (sheriklik). Ikki yoki undan ortiq tomon birgalikda kapital kiritadi va biznes loyihasida sherik bo‘ladi. Foyda kelishilgan nisbatda, zarar esa kapital ulushlari asosida taqsimlanadi. Mushoraka islomiy moliyada eng adolatli shartnoma hisoblanadi, chunki unda tavakkalchilik va daromad to‘liq taqsimlanadi.

Sukuk (islomiy obligatsiyalar). Sukuk — bu an’anaviy obligatsiyalarning islomiy muqobilidir. An’anaviy obligatsiyalar emitentning qarz majburiyati bo‘lib, investorlarga foiz to‘laydi. Sukuk esa muayyan aktivga egalik huquqini beradi va daromad aktivdan keladigan foyda asosida taqsimlanadi. Sukuk bozori global islomiy moliyaning eng tez o‘sayotgan segmentlaridan biridir.

Xalqaro tajriba: Islom darchalari

Islom darchalari (Islamic Windows) — bu an’anaviy banklar doirasida tashkil etiladigan, shariat tamoyillariga muvofiq xizmat ko‘rsatadigan maxsus bo‘limlardir. Ushbu model islomiy banklarni noldan tashkil etmasdan, mavjud bank infratuzilmasi orqali foizsiz xizmatlarni tez va arzon joriy etish imkonini beradi.

Islomiy bankchilik eng rivojlangan davlat hozirgi kunda Malayziya hisoblanadi. Malayziya 1993-yildan boshlab Islom darchalarini rasman joriy etgan. Kuchli huquqiy baza, markaziy bankning faol qo‘llab-quvvatlashi va Shariat kengashi nazorati tufayli mamlakat islomiy moliya markaziga aylangan. Islom banklarini joriy etilishi, an’anaviy banklar o’rtasidagi raqobatni kuchautirgan va mamlakatda sezilarli darajada iqtisodiy o’sish kuzatilingan. 2020-yilga kelib, Malayziyadagi islom banki aktivlari umumiy bank aktivlarining 35% dan oshgan. Bugungi kunda Malayziyada to‘liq islomiy banklar va aralash tizimdagi banklar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari islomiy bankchilikning muvaffaqqiyatli modeli sifatida BAA tajribasini keltirish mumkin. BAAda yirik banklar (masalan, Emirates NBD, Abu Dhabi Commercial Bank) Islom darchalari orqali murabaha va ijara asosida moliyalashtirish xizmatlarini ko‘rsatadi. Har bir bankda faoliyat yurituvchi Shariat kengashi xizmatlarning shariatga muvofiqligini nazorat qiladi.

Bugungi kunda islom banklarining samaradorligini butun dunyo tan olgan. Xatto, ushbu moliya tizimi musulmon bo’lmagan mamlakatlarga ham kirib bormoqda. Jumladan, Buyuk Britaniya. U G‘arb mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib islomiy moliyani qonuniylashtirgan davlatdir. HSBC va Barclays kabi banklar Islom dachari orqali joriy hisobvaraqlar, uy-joy moliyalashtirish va takoful (islomiy sug‘urta) xizmatlarini taklif etadi.

Xalqaro tajribalarni o’rganib chiqib shuni aytish mumkinki, Islom darchalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun islomiy moliyaga oid alohida qonunchilik; malakali Shariat kengashi; bank xodimlarining islomiy moliya bo‘yicha yetarli bilimi; aholining

moliyaviy savodxonligini oshirish kabi asosiy fundamental omillar to'g'ri shakllantirilgan bo'lishi zarur.

O'zbekistonda islomiy bankchilikning huquqiy asoslari

Joriy yilning 27-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan O'RQ–1126-sonli "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun mamlakatda islomiy bankchilik tizimini huquqiy jihatdan rasmiylashtirishda muhim bosqich bo'ldi. Qonun o'zida quyidagi muhim islohotlarni qamrab oladi:

- **Institutsional tuzilma:** Markaziy bank huzurida 5 nafar a'zodan iborat, sohadagi standartlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiquvchi Islomiy moliya kengashi tashkil etiladi. Shuningdek, islomiy bank faoliyatini yurituvchi har bir bankda kamida 3 kishidan iborat ichki nazorat kengashi bo'lishi shart.
- **Litsenziyalash:** Banklar uchun ikki turdagi litsenziya joriy etildi: an'anaviy va islomiy bank faoliyati uchun. Faqat islomiy litsenziyaga ega banklar o'z nomida "islomiy" so'zini qo'llash huquqiga ega bo'ladi.
- **Amaliy mexanizmlar:** Qonun bilan *mudoraba, murabaha, vakala, salam, mushoraka va ijara muntahiya bittamlik* kabi operatsiyalarga huquqiy maqom berildi.
- **Soliq va kafolatlar:** *Sukuk (islomiy obligatsiyalar)* operatsiyalari QQSdan ozod etildi. Muhim jihati, islomiy investitsiyaviy omonatlar (mudoraba) an'anaviy depozitlardan farqli ravishda to'liq kafolatlanmaydi, ya'ni risklar omonatchilar tomonidan ham taqsimlanadi.

Ushbu huquqiy islohotlar O'zbekiston moliya tizimining global islomiy moliya standartlariga (AAOIFI, IFSB) integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirish istiqbollari

O'RQ–1126-sonli qonunning qabul qilinishi bilan O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Avvalo, qonun talablariga muvofiq Markaziy bankning Islomiy moliya kengashini tashkil etish va islomiy molyaviylik standartlarini ishlab chiqish lozim. Bu standartlar AAOIFI (Islom moliyaviy institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti) va IFSB (Islom moliyaviy xizmatlar kengashi) kabi xalqaro tashkilotlarning standartlariga mos kelishi kerak.

Shuningdek, mavjud tijorat banklari yangi litsenziya olish orqali Islom darchalarini ochishi mumkin. Bu usul katta mablag' talab qilmasdan, tez va samarali tarzda foizsiz xizmatlarni joriy etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, islomiy moliya bo'yicha ilk pilot loyihalarni amalga oshirish maqsadida bir yoki ikkita bankda islomiy bank litsenziyasini joriy etish va ushbu tajribani o'rganish tavsiya etiladi.

O'zbekiston sharoitida islom bankchiligini joriy qilish orqali mamlakatga xorijiy jumladan fors ko'rfazi investitsiyalarini jalb qilishga erishish mumkin. Bundan tashqari, islomiy bankchilik kichik tadbirkorlarga ham katta imkoniyatlar yaratadi. Natijada, mamlakat YaIM ini oshirishga erishish imkoni paydo bo'ladi.

Xulosa

Islomiy bankchilik — bu foiz, noaniqlik va qimor elementlaridan xoli, real aktivlarga asoslangan, foyda va zararni adolatli taqsimlash tamoyiliga tayangan moliyaviy tizimdir. Ushbu tizim an'anaviy banklardan nafaqat texnik jihatdan, balki axloqiy va ijtimoiy maqsadlari bilan ham farq qiladi. Murabaha, ijara, mudoraba, mushoraka va sukuk kabi instrumentlar orqali

islomiy banklar iqtisodiyotni real sektor bilan bog‘lab, inflatsiyani kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalar, xususan Malayziya, BAA, Pokiston va Buyuk Britaniya misolida, Islom darchalari orqali islomiy moliyani joriy etishning samaradorligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston uchun 2026-yilda qabul qilingan O‘RQ–1126-sonli qonun islomiy bankchilikning huquqiy asoslarini yaratib, Markaziy bank va banklar darajasida Islomiy moliya kengashlarini tashkil etish, ikki litsenziya tizimini joriy qilish va islomiy molyaviylik operatsiyalarini qonuniylashtirishga yo‘l ochdi.

Kelajakda islomiy bankchilik O‘zbekistonda nafaqat musulmon aholining diniy ehtiyojlarini qondirish, balki xorijiy investitsiyalarni jalb etish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim omilga aylanishi mumkin. Qonunning amaliyotga tatbiq etilishi, malakali kadrlar tayyorlanishi va aholining moliyaviy savodxonligining oshishi bilan O‘zbekiston islomiy moliya bozorida muhim o‘rin egallash imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ–1126-sonli Qonuni. 2026-yil 27-mart.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-765-sonli Qonuni. 2022-yil 20-aprel.
4. Zaripov I.A. (2016) Islomiy moliyalar Rossiya taraqqiyotining strategik yo‘nalishi sifatida.
5. Tursunov A. (2021) Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari. PhD diss. avtoreferati, Toshkent.
6. Abrorov S. (2020) O‘zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog‘ozlarni joriy etish istiqbollari. PhD diss. avtoreferati, Toshkent.
7. Axmadjonov O., Abdullayev A. va boshq. (2021) Islomiy moliyaning xususiyatlari. Scientific progress, 2(8), 634-638.
8. Yusuf M., Komarudin P., Abduh M.R. va boshq. (2023) The Role of Islamic Banks in Indonesia: A Systematic Literature Review. Al-Mashrafiyah, 7(1).
9. Abasimell N.A. (2024) Islamic Banking and Economics: Concepts and Instruments, Features, Advantages, Differences from Conventional Banks, and Contributions to Economic Growth.
10. Balarabe A., Abdullah M.F., Gwadabe U.M., Muhammad A.J. (2023) History of Islamic Banking in Malaysia: A General Review. International Journal of Islamic Products and Malay Civilization.
11. Qo‘ldoshev N.N. Islom darchalari ochishda xalqaro tajribalar.
12. Sindarov Sh., Mamadiyorov H. Islom banki tamoyillari.
13. El-Gamal M.A. (2006) Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. Cambridge University Press.
14. Ayub M. (2007) Understanding Islamic Finance. John Wiley & Sons.